

## **DISLALIYANI BARTARAF ETISHDA LOGORITMIK VOSITALARDAN FOYDALANISH**

Abdullayeva Shahzoda Farhod qizi  
Toshkent shahar Chilonzor tumani  
586- DMTT logopedi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada dislaliyani kelib chiqish sabablari, dislaliyani diagnostikasi va bosqichma- bosqich davolash usullari yoritilgan, dislaliyani bartaraf etish usullari va mavzuga doir xulosa va takliflar bildirilgan. Dislaliya- tovush talaffuz qilishning normal eshitish va nutq apparatining saqlangan innervatsiyasi paytida buzulishidir.

**Kalit so'zlar:** Chuchukli, rotatsizm, lambdatsizm, sigmatizm, xirurgiya, differensial, mexanizm, funksional.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagagi bolalarda ayrim nutq nuqsonlari kuzatilib, ularni bartaraf etish bo'yicha logopedik ishlar tashkil etilgan. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. Maxsus ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda qulay va samarli usullaridan foydalanishning ahamiyati katta rol o'ynaydi. Insonning eng muxim xususiyatlaridan biri uning so'zlash qobiliyatidir. Ravon nutq orqali ifodalangan fikr tushunarli va yoqimlidir. Nutq insonning murakkab oliy psixik funksiyalaridan biridir. Nutq harakatlari murakkab a'zolari tizimi orqali amalga oshiriladiki, bunda bosh miya faoliyati assosiy rol o'ynaydi, nutq faqat inson uchun xos bo'lgan alohida va yuqori darajadagi aloqa shaklidir, nutqiy aloqa jarayonida kishilar fikr almashadilar va bir-birlariga ta'sir etadilar. Nutq buzulishlari quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. So'zlovchining yoshiga nomuvofiqlik xususiyati;
2. Shevachilik, nutqiy savodsizlik, til bilmaslikning ifodasi bo'limgan xususiyatlar;
3. Nutqning psixofizologik mexanizmlaridagi chetlashish bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlar;
4. O'z-o'zidan yo'qolmaydigan, balki mustahkamlanadigan barqaror xususiyatlar;
5. Dislaliya nutq buzulishining xarakteriga bog'liq holda mustahkamlanadigan barqaror xususiyatlar;

6. Bolaning keying psixik rivojlanishiga tez-tez salbiy ta'sir o'tkazadigan xususiyatlar.

Bunday tariff nutq buzulishlarini nutqning yoshga bog'liq xususiyatlaridan, uning bolalarda va kattalarda vaqtinchalik buzulishidan: nutqning territorial dialektli va sosial-madaniy omillar bilan bog'liq xususiyatlaridan farqlash imkoniyat yaratadi. Nutqida nuqsoni bor bolalar bilan olib boriladigan ta'lim tarbiya jarayonida bolalar quyidagi bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantiriladi:

- Bolalarni nutq kamchiliklarini bartaraf etish va shu bilan birga idrok, xotira, tafakkur, tasavvur kabi bilish qobilyatlarini rivojlantirish;
- Korreksion-pedagogik ish faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- Bu jarayonda qo'llaniladigan ish metod va usullarini analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konkretllashtirish kabi aqliy operasiyalardan foydalanish;
- Bolalarning individual va psixik xususiyatlarini hisobga olgan holda nutq o'stirishga qaratilgan maxsus usullardan foydalanish va ularni hayotga moslashtirish;

Hozirgi kunda nutq buzulishlari keng uchramoqda ulardan biri dislaliya. Dislaliya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis- buzilishi, lalia- nutq degan ma'noni anglatadi. Dislaliya nutq buzulishlari orasida eng ko'p tarqalgan kamchilikdir. Ye.F.Rau ma'lumotiga ko'ra, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar muktabgacha yoshdagagi bolalarda 15-20% ni, kichik muktab yoshdagagi bolalarda 5-7% ni tashkil etar ekan. M.N. Aleksandrova ma'lumotiga ko'ra Rossiyada 5-6 yoshli bolalarda sirg'aluvchi tovushlar ( s, z ) 23%, shovqinli tovushlar ( sh, j ) 24%, afrikat tovush ( ch ) 13 % "r" tovushi 26 %, "L" tovushi 10%, jaranglilar 4,5 % "Y" tovushi 1,5 %, til orqa tovushlari 1% ko'rsatkichlarda no'to'g'ri talaffuz etilishi ko'rsatiladi.

R. Bekker ma'lumotiga ko'ra, Germaniyada dislaliya hodisasi 5-6 yoshli bolalarning 34 % uchrar ekan. O'zbekistonda M. Ayupova ma'lumoti bo'yicha 5 yoshli bolalarda sirg'aluvchi ( s, z ) 32,1%, shovqinlilar ( sh, j ) 38,4 % "r" tovushi talaffuzida 60,7 %, til orqa tovushlari 25 %, chuqur til orqa tovushlari ( q, g' ) 7,1 %, "l" tovushi 5,4% tashkil etgan. Nutqdagi talaffuz kamchiliklarini ilmiy tasnif biringchi urinishlar XIX asrning bosolarida boshlandi."Dislaliya terminini Yevropada biringchi bo'lib Vilnyus universitetining shifokori professor I. Frank ilmiy muomalaga kiritgan. Hozirgi vaqtida dislaliya nutq apparat inervatsiyasi saqlangan va eshitish normada bo'lganda tovushlar talaffuzidagi kamchilik deb talqin etiladi. Etiologik belgilariiga ko'ra dislaliya ikki shaklga bo'linadi: mexanik (organik) va

funktional dislaliya. Mexanik disaliya, mexanik (organik) disaliya periferik nutq apparatining ( til, jag', tanglay, tish ) organik buzilishi natijasidir. Til tagidagi etning (yugancha) kaltaligi mexanik dislaliyaga sabab bo'ladi. Bu kamchilik til harakatini qiyinlashtiradi, til tagidagi etning haddan tashqari kalta bo'lishi tilning yuqori tomon ko'tarilishiga imkon bermaydi. Bundan tashqari, tilning haddan tashqari katta bo'lishi yoki haddan tashqari kichik va tor bo'lishi ham dislaliyaga olib keladi. Bunday hollarda to'g'ri artikulatsiya qiyinlashadi. Jag' tuzulishidagi kamchiliklar prikus nonnormalliklarga olib keladi. Nonormal prikuslar bir necha xil ko'rinishida bo'lishi mumkin. Prognatiya- yuqori jag' oldinga tomon chiqqan bo'ladi. Buning natijasida pastki oldingi tishlar yuqoridagi tishlar bilan birlashmaydi. Progeniya-pastki jag' oldinga chiqqan bo'ladi. Ochiq prikus – yuqori va pastki jag'lar birlashganda ular orasida oraliq masofa qoladi. Ayrim hollarda bu oraliq faqat oldingi tishlar orasida bo'ladi (oldingi ochiq prikus) Yoni ochiq prikus o'ng tomonli, chap tomonli va ikki tomonli bo'lishi mumkin. Tishlarning ( tish qatorining ) noto'g'ri tuzulishi ham dislaliyaga sabab bo'lishi mumkin. Tishlar va jag'dagi kamchiliklarni bartaraf etish shifokor- stomatolig tomonidan olib boriladi. Tanglayning noto'g'ri tuzilishi ham tovushlarning to'g'ri talaffuziga xalaqit beradi. Tor, baland yoki past, yassi tanglay ko'pchilik tovushlarning to'g'ri artikulatsiyasiga imkon bermaydi. Labning qalinligi ingichkaligi va kam harakatchanligi ham lab va lab- tish tovushlarini aniq talaffuziga xalaqit beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Y. Ayupova. " Logopediya " 10.08.2007-yil
2. M.Y. Ayupova. " Logopediya" O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. 2007-yil
3. L. Mo'minova. " Tutilib gapiruvchi o'smirlar uchun qo'llanma "
4. Raxmanova V. S. " Korreksion pedagogika va logopediya " 2007-yil.
5. "Logopediya" ( L. S. Volkova tahriri ostida ).
6. Saidova M. EDUCATE STUDENTS BY SOLVING TEXTUAL PROBLEMS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.